

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy bankida

2026-yil "14" avgust da
ro'yxatga olingan

Ro'yxatga olish raqami 37/2

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki raisining o'rinbosari



S.S. Nosirov

**“MIKROKREDITBANK”
aksiyadorlik-tijorat banki
Ustaviga kiritilgan
o'zgartishlar va qo'shimchalar**

“TASDIQLANGAN”
“Mikrokreditbank” ATB
Aksiyadorlarining navbatdagi yillik
umumiy yig'ilishining
2026-yil 29-iyundagi
1-sonli bayonnomasi bilan

Kuzatuv kengashi raisi

B.E. Zaxidov
M.O'



Toshkent – 2026

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga kiritilgan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar

1. Ustav quyidagi mazmundagi 8.23-band bilan to‘ldirilsin:

“8.23. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining 50 (ellik) foizidan ortig‘iga egalik qiluvchi yoxud ovoz beruvchi aksiyalari miqdori Bankning boshqa har bir aksiyadori ulushiga nisbatan ko‘p bo‘lgan hamda ovozi qaror natijasiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan aksiyador majoritar aksiyador deb e’tirof etiladi.

Agar majoritar aksiyadorga qarorlar Bankning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga zarar keltirishi oldindan ayon bo‘lsa, u mazkur qarorlarni shaxsiy manfaatlarini hisobga olib qabul qilmasligi, Bank boshqaruv organlarining yig‘ilishi kun tartibiga Bankning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga mos kelmaydigan masalalarni yoki hal etilishi Bankning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga zarar yetkazishi oldindan ma’lum bo‘lgan masalalarni kiritmasligi shart.

Bankning majoritar aksiyadori ushbu bandda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida Bankka va boshqa aksiyadorlarga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.”.

2. Ustavning 13.27-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13.27. Bank Kuzatuv kengashi a’zolari Bank va uning aksiyadorlari oldidagi o‘z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonunchilikka va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Bankning Kuzatuv kengashi a’zosi quyidagilar natijasida Bankka yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi:

chalg‘ituvchi axborot yoki bila turib yolg‘on axborot taqdim etganlik;
qonunchilikda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan Bank bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o‘zlari yoki o‘z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik;

fidutsiar majburiyatlarni bajarmaslik.”.

3. Ustav quyidagi mazmundagi 13.32-band bilan to‘ldirilsin:

“13.32. Kuzatuv kengashi a’zolari quyidagi fidutsiar majburiyatlarni bajarishlari lozim:

jonkuyarlikni namoyon qilish majburiyati – Kuzatuv kengashi a’zosidan vijdonan va jonkuyarlik asosida harakat qilish;

sodiqlikni namoyon qilish va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik majburiyati – Kuzatuv kengashi a’zolaridan, birinchi navbatda, Bank manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish;



lozim darajada ko'zdan kechirishlikni namoyon qilish majburiyati – Kuzatuv kengashi a'zolaridan Bankka nisbatan qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashish;

mustaqil mulohazadan foydalanish majburiyati – Kuzatuv kengashi a'zosidan qarorlarni mustaqil, shaxsiy va boshqa manfaatlarni inobatga olmagan holda qabul qilish;

vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, Bank va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanish;

Bank mol-mulkidan Bankning Ustaviga va ichki hujjatlariga (qoidalariga) zid ravishda va (yoki) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va (yoki) Kuzatuv kengashining qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini ko'zlab foydalanmaslik hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik;

Bankning biznes imkoniyatlaridan yoki Bank uchun manfaatli bo'lgan obyektlardan o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki o'z mavqeyidan kelib chiqqan holda, Bankning tegishli boshqaruv organlari rozilgisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab, shunday naf olishga ko'maklashish maqsadida foydalanmaslik;

Bankning asosiy faoliyati yo'nalishlariga xos bo'lgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini Bankning tegishli boshqaruv organlari rozilgisiz amalga oshirmaslik;

qonunchilikka, Bankning ichki hujjatlariga (qoidalariga) va shartnomaga muvofiq Bank faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik;

o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslik yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslik;

qonunchilikda, Bank Ustavida va ichki hujjatlarida (qoidalarida) belgilangan boshqa fidutsiar majburiyatlar.”.

4. Ustavning 14.24-bandini quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14.24. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari Bank va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonunchilikka va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Bankning Boshqaruv raisi yoki Boshqaruv a'zosi quyidagilar natijasida Bankka yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

chalq'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

qonunchilikda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan Bank bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik;

fidutsiar majburiyatlarni bajarmaslik.”.

5. Ustav quyidagi mazmundagi 14.29-band bilan to'ldirilsin:

“14.29. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari Bank manfaatlari yo'lida vijdonan va oqilona harakat qilishga majbur bo'lib, ular quyidagi fidutsiar majburiyatlarga rioya etishlari lozim:

qonunchilik hujjatlari, Bank Ustavi hamda Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan strategiya va siyosatlarni amalga oshirishga doir qarorlarga rioya etgan holda majburiyatlarini o'z vakolatlari doirasida bajarish;

o'zlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishi uchun o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritish;

zarur va oshkora ma'lumotni belgilangan muddatlarda olish, ular bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlarni ko'rish hamda shaxsiy malaka va tajribaga tayangan holda qarorlar qabul qilish;

manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmaslikka oid talablarga rioya etish;

Bank boshqaruv organlari, shu jumladan, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga nisbatan tenglik tamoyiliga rioya etish;

benuqson ishchanlik obro'siga ega bo'lish;

vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, Bank va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanish;

Bank mol-mulkidan Bankning Ustaviga va ichki hujjatlariga (qoidalariga) zid ravishda va (yoki) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va (yoki) Kuzatuv kengashining qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini ko'zlab foydalanmaslik hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik;

Bankning biznes imkoniyatlaridan yoki Bank uchun manfaatli bo'lgan obyektlardan o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki o'z mavqeyidan kelib chiqqan holda, Bankning tegishli boshqaruv organlari rozilgisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab, shunday naf olishga ko'maklashish maqsadida foydalanmaslik;

Bankning asosiy faoliyati yo'nalishlariga xos bo'lgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini Bankning tegishli boshqaruv organlari rozilgisiz amalga oshirmaslik;

qonunchilikka, Bankning ichki hujjatlariga (qoidalariga) va shartnomaga muvofiq Bank faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik;

o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslik yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslik;

qonunchilikda, Bank Ustavida va ichki hujjatlarida (qoidalarida) belgilangan boshqa fidutsiar majburiyatlar.”.

Boshqaruv raisi v.v.b

I. Djumaniyazov